Vol.2 №10 (2024). October
innovativepublication.uz
INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective
Learning and Sustainable Innovation

# Nemis va o‘zbek tillaridagi ketma-ket tarjima jarayonida yuzaga keluvchi ayrim muammoli omillar

**Raxmanov Botir Maxmudovich**
O´zbekiston davlat jahon tillari universiteti o´qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis va o’zbek tillarida ketma-ket tarjima jarayonida duch kelinadigan ayrim muammoli omillar haqida ma'lumotlar beriladi. Ogzaki tarjimaning alohida yo’nalishi hisoblangan ketma-ket o’girish nemis tilidagi gaplarning murakkab tarkibiy tuzulishi va grammatik konstruksiyalarning o’zaro muqobilini qidirib topish omillri bilan bog’liq ekani tahlil etiladi. Maqolada nemis va o’zbek tillarida kesimning ko’p qismliligi, prodloglarning o’rni kabi masalalar tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega ekani haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so´zlar**: og’saki tarjima, ketma-ket tarjima, grammatik konstuksiyalar, muqobillik, so’z tartibi, nutqda zamon kategoriyasi.

O‘zbek tilining ilmiy til sifatida imkoniyatlari kengayib borayotgan va uning boshqa tillar bilan amaliy muloqotni ta’minlashdagi ahamiyati tobora ortib borayotgan bugungi kunda tarjimonlik faoliyati doimiy ehtiyojga ega bo‘lgan mutaxassislik, ya’ni jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan kasblar qatoriga kirib kelmoqda. Shu o‘rinda qayd etish mumkin-ki, tilimizdagi bu sohaga bag‘ishlangan mavjud ilmiy manbalar va o‘quv adabiyotlarda tarjima faoliyatini, asosan, nasriy va nazmiy badiiy asarlarni hamda mashhur tarixiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga o‘girish borasidagi to‘plangan tajribalar bilan boyitib, tarjimani ko‘proq badiiy ijod mahsuli va san’at sifatida ko‘rishga e’tibor qaratilgan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, o‘zbekcha “tarjima” so’zi — forscha «tarzabon» so‘zidan arabiylashib o‘zgargan (“tarzabon” — chiroyli so‘zlovchi, notiq, tili burro kishi). Arab tiliga u “tarjumon” shaklida qabul qilingan, undan “tarjima” yoki “tarjuma” hosil bo‘lgan.

O‘zbek adiblari bunday tushunchani “chevurish”, “o‘tkazish”, “qaytarish”, “ag‘darish”, “o‘girish” singari atamalar bilan ifoda etganlar. Ko‘p yillar davomida “tarjima” *sharx, tafsir, bayon qilish, tushuntirish* ma’nolarida ham qo‘llanib kelingan[1].

Shu bilan birga, bugungi kunda tarjima faoliyati yanada takomillashib, uning turli xil uslubiy yo‘nalishlari yuzaga keldi va ilmiy adabiyotlarda tarjimani bajarilish va mazmuniy xususiyatlariga qarab, og‘zaki va yozma tarjima, ketma-ket va sinxron tarjima, badiiy va ilmiy-ommabop tarjima kabi bir qator tavsiflari mavjud. Bunday xilma-xillik, avvalambor, jamiyatdagi o‘zaro muloqotning rang-barangligi bilan bog‘liq bo‘lib, biz so‘z yuritmoqchi bo‘layotgan yo‘nalish og‘zaki tarjimaning eng qadimiy va eng keng tarqalgan turi hisoblanuvchi ketma-ket tarjima sohasiga qaratilgan[2].

Ketma-ket tarjima o‘zining yo‘nalishiga ko‘ra, bir tomonlama va ikki tomonlama tarjima turlariga ajratiladi. Bir tomonlama ketma-ket o‘girish, asosan, gapiruvchi monologik nutq ijro etganda, ya’ni konferensiyalar, turli ilmiy-amaliy anjumanlarda keng qo‘llaniladi. Ikki tomonlama ketma-ket o‘girish eng keng tarqalgan bo‘lib, uning qo‘llanish doirasi rasmiy uchrashuvlar, turli muzokoralar va biznes muloqotlardan tortib, norasmiy davra so‘hbatlarigacha bo‘lgan vaziyatlarni qamrab oladi[3] hamda tarjimondan keng qamrovli bilim va ko‘nikmalarni talab etadi.

Tarjimaning bu turi bevosita og‘zaki muloqot jarayonini ta’minlab beruvchi faoliyat bo‘lib, unda original tildan tarjima tiliga o‘girilayotgan ma’lumot juda qisqa vaqt oralig‘ida, ya’ni amaldagi nutq ijrosi bilan bog‘liq holda, qoidaga binoan, qo‘shimcha yordamchi qayd etish vositalarning (yozuvlar, lug‘atlar, elektron texnik vositalar v.b.) cheklangan muhitida[4] amalga oshiriladi. Ana shu jarayonning bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki til, ya’ni nemis va o‘zbek tillarida amalga oshirilishi, har ikki tildagi tarjimon uchun murakkab, shu bilan birga, o‘ta qiziqarli omillarni hisobga olishni talab etadi.

Nemis tilidan o‘zbekchaga ketma-ket tarjimada uchraydigan bunday omillarni murakkabligi va bevosita amaliy tarjima bilan shug‘ullanuchi mutaxassislarning tajribasidan kelib chiqib, bir necha turlarga ajratgan holda tahlil qilish mumkin.

Og‘zaki tarjima jarayonida tarjimon uchun nemischa-o‘zbekcha yoki o‘zbekcha nemischa ketma-ket tarjimada eng ko‘p uchraydigan muammoli masalalardan biri, bu nemis tilida **so‘z tartibi**ning qat’iy talab va qoidalar asosida shakllanishi. Qoidaga ko‘ra, nemis tilida kesimning gapdagi o‘rni alohida belgilab qo‘yilgan va bu holat nutqning asosiy qismini tashkil etuvchi darak va so‘roq so‘zli so‘roq gaplarda ikkinchi o‘rinda keladi. Masalan, *Der ältere Bruder stand neben ihm, beinahe regungslos. - Akasi uning yonida deyarli qimir etmay turardi*. O‘zbek tilida kesim odatda gapning oxirgida keladi. Nemis tili gaplarining qat’iy qoidalaridan yana biri sifatida, kesimning ikki va undan ortiq bo‘lakli ekanini alohida qayd etish lozim. Bu masala, ayniqsa, nemis tilidagi qo‘shma va ergash gapli qo‘shma gaplarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, *Der Arzt, der abends aus der Stadt kam, konnte auch nicht mehr helfen. - Kechqrun shahardan yetib kelgan vrach ham, ortiq yordam bera olmadi*.

Ikki til o‘rtasidagi muloqotni ta’minlashda ketama-ket tarjimani murakkablashtiruvchi yana bir omil, nemis tilidagi so‘zlarda, ayniqsa, fe’llarning turli **old qo‘shimcha**larga boyligi va ularning so‘z mazmunini o‘zgartish xususiyatiga egaligi. Bunday old qo‘shimchalar nemis tilida „Präfix“ – prefikslar deb atalib, ular alohida holda yaxlit mazmunga ega bo‘lmagan, balki boshqa so‘zlarga qo‘shilgan holdagina mazmun boyituvchi yoki o‘zgartiruvchi so‘zning old bo‘g‘iniga qo‘shiladigan qo‘shimchalar (Affix) tushuniladi[5]. Bunday qo‘shimchalar nemis tilida ajraluvchi va ajralmaydigan turlarga bo‘linadi va nemischadan o‘zbekchaga o‘girayotgan tarjimon uchun ularning ajraluvchilari anchagina muammoli hisoblanadi. Xuddi shunday xususiyatni ayrim nemis fe’llarining ajraluvchi qismlari, ya’ni qo‘shma yoki murakkab fe’llarning old bo‘laklarida ham kuzatish mumkin. Og‘zaki tarjima, ya’ni ketma-ket tarjimada bunday gaplar tarjimon uchun alohida diqqat va e’tiborni talab etadi, ya’ni tarjimon original tilda so‘zlovchining gapini oxirigacha tugatishini kutib turishi kerak bo‘ladi. Chunki nemis tilida so‘zlarning ajraluvchan ikki bo‘lakli bo‘lishida, ajralgan bo‘lak, ko‘pincha gapning oxirida ifoda etiladi va tarjimon

yakuniy xulosaga kelishi uchun, ko‘pincha ushbu gap oxiridagi bo‘lak muhim rol o‘ynaydi. Masalan,

1) *Carlo stand auf und nahm wieder seinen Platz an des Bruders Seite ein. - Karlo o‘rnidan turdi va ukasi tomonga o‘tib yana o‘tirib oldi.*

*2) Aber die beiden im Wagen hielten einander fest umarmt, während der Wagen sie hin und her warf. - Foytun chayqalgancha ikkalovini u yoqdan, bu yoqqa otar, ular esa, bir-birini mahkam quchib olishgandi.*

**Grammatik kategoriyalar va shakllarning**, jumladan, kelishiklar va zamon shakllaridagi sezilarli farqlar tarjima jarayonida uchraydigan yana bir murakkab masalalardan biridir. Nemis va o‘zbek tillarida grammatik kategoriyalar o‘zaro chog‘ishtiriladigan bo‘lsa, ularning nominal xususiyatlarida o‘xshashliklar juda ko‘p uchraydi. Xususan, kelishik kategoriyasi har ikkala tilda ham mavjud bo‘lib, u otlarni boshqa so‘zlar bilan moslashuvini ta’minlaydi. Ammo kelishiklarni ifoda etilishi ikki tilda keskin farq qiladi. Nemis tilidagi kelishiklar, asosan, artikl va predloglar orqali ifoda etilsa, bu holat o‘zbek tilida so‘z oxiridagi qo‘shimchalar, ya’ni suffikslar orqali yuzaga keladi. Bunday vaziyatda tarjimon nemis tilidagi kelishik ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar va so‘z birikmalaring o‘zbek tilidagi muqobil qoliplarini yaxshi bilishi hamda ularni gapning umumiy mazmuniga mos ravishda tarjima qila olishi kerak bo‘ladi. Masalan, *Hinter ihnen, auch von Seitenwegen, ja sogar von oben aus dem Walde, ihnen entgegen, kamen Spaziergänger. -Ularning ortidan ham, chetdagi yo‘laklardan ham, va hatto, yuqoridagi o‘rmondan ham, sayrga chiqqanlar ular tomon kelishardi*.

Nemis tilidagi fe’llarning zamon kategoriyasi, o‘zbek tilidan farqli ularoq, o‘zining yasalish shakllari va ma’no xususiyatlarini ifoda etishda ma’lum bir ketma-ketlikka tayanishni talab etadi. Masalan, bunday o‘ziga xoslikni sabab ergashli gapli qo‘shma gaplarda ko‘p uchratishimiz mumkin: *Nur der Tischler würde bestraft werden, wenn er noch lebte. - Agar tirik bo‘lganida edi, faqatgina duradgor jarimaga tortilgan bo‘lardi.*

Ikki tomonlama ketma-ket tarjma jarayonida mutaxassis uchun yana bir murakkab omillardan biri, bu nemis tilida otlarning rod kategoriyasi bo‘lib, tarjimonning bu masalada chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etiladi. O‘zbek tilidagi otlarda rod kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etmasligini e’tiborga olinadigan bo‘lsa, ayniqsa, o‘zbekchadan nemischaga bevosita og‘zaki tarjima jarayonida nemis tilidagi har bir otning rodidan kelib chiqqan holda gaplarni shakllantirish murakkab jarayonga aylanadi. Chunki nemis tilida rodlar orqali otlarning gapdagi boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishi aniq qoidalar asosida yuzaga keladi bu jarayonda ularning artikllari muhim ahamiyat kasb etadi.

Nemischa-o‘zbekcha ketma-ket trajima jarayonida tarjimondan alohida e’tibor talab etuvchi dolzarb muammolarga yana nemis tilidagi predloglar va ularning kelishikni boshqarish xususiyatlari, vaziyatga qarab ijobiy, salbiy va neytral ma’no kashf etuvchi tasdiq, inkor, rozilik, qarshilik, hamdardlik va umumlashtiruvchi mazmundagi doch,auch, je, denn, jedoch kabi yordamchi so‘zlar tarjimasi kabi masalalarni ham kiritish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan omillar tahlili shuni ko‘rsatadi-ki, ayni chog‘da ikki til o‘rtasidagi og‘zaki muloqotning tobora kengayib borayotganini e’tiborga olgan holda, nemis tilidan malakali tarjimonlar tayyorlash jarayonida foydalanish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy va amaliy tadqiqotlarga asoslangan o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar tayyorlash yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoning yechimlaridan biri sifatida, nafaqat tarjimashunoslik nazariyasi, balki bugungi kunda amaliy tarjima bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislarni ham turli grantlar yoki loyihalar doirasida o‘quv jarayoniga jalb qilish mumkin. Bunday hamkorlikning amliy natijasi sifatida talabalar uchun turli seminarlar, ochiq muloqotlar hamda maxsus kurslar tashkil etish imkoni kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Комилов Н. Бу қадимий санъат. «Таржима санъати» мақолалар тўплами. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент 1976, Б-57.

2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). — М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. С. 13.

3. Батрак А.В., Котёлкин В.П. Пособие по устному переводу: немецкий язык. «Высшая школа», М. 1979. С.42

4. Особенности последовательного перевода. https://linguacontact.com/blog/osobennosti - posledovatelnogo-perevoda/ (мурожаат санаси: 17.09.2024).

5. Сивец М. Особенности перевода с немецкого языка. https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-i-osobennosti-perevoda-nemetskih-ekonomicheskih-terminov/viewer. (мурожаат санаси: 22.09.2024).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "INNOVATIVE PUBLICATION" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

# DIPLOM

**Ushbu diplom "Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation" ilmiy jurnalining Vol. 2 No. 10 sonida nashr etilgan quyidagi ilmiy maqolaga mualliflik qilganligi uchun berildi:**

## Nemis va o'zbek tillaridagi ketma-ket tarjima jarayonida yuzaga keluvchi ayrim muammoli omillar

**Maqola muallifi:** **Raxmanov B.M**

**Maqola nashr etilgan sana:** **04.10.2024**

# CERTIFICATE

## OF PUBLICATION

This certificate is proudly awarded to

**Raxmanov Botir Maxmudovich**

is recognition of the paper publication entitled

**“Nemis va o‘zbek tillaridagi ketma-ket tarjima jarayonida yuzaga keluvchi ayrim muammoli omillar”**

**Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation**

04.10.2024

Vol. 2 No. 10

Innovativepublication.uz

ISSN: 2181-XXXX